Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

ADABIYOT, MADANIYAT VA IJODIY TARJIMA

03 October 2026

UDK 82

HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE’RIYATIDA OKKAZIONALIZMLARNING O‘RNI

Umeda O’ktam qizi Rizayeva*

Navoiy davlat universiteti

✉ urahmonova953@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoirasi, betakror iste’dod sohibasi Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida qo‘llangan okkozional so‘zlar ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan. Tadqiqot davomida shoira she’rlarining badiiy pishiqligi va o‘ziga xosligi misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar

okkozionalizmlar, individual uslub, lingvopoetik maqsad, tasviriy vosita.

DOI: 10.5281/zenodo.23278582

Kirish/ Introduction/ Введение

O‘zbek adabiyotida o‘zining alohida o‘rniga va ovoziga ega, betakror satrlari bilan ajralib turuvchi xassos shoira Halima Xudoyberdiyeva ijodi bilan xalqimiz qalbida o‘chmas iz qoldirgan. Shoira o‘zbek tilining boy so‘z yasash imkoniyatlaridan foydalangan holda, tildagi tayyor birliklar bilan cheklanib qolmaydi. Uning asarlarida uchraydigan okkazionalizmlar o‘zbek she’riyatining lingvopoetik qiyofasini belgilovchi muhim elementlardir.

Materiallar va usullar/ Material and methods/ Материалы и методы

O‘zbek tilshunosligida okkazionalizmlar va badiiy so‘z estetikasi masalalari 1970-1980-yillardan boshlab tizimli o‘rganila boshlandi. Bu borada professorlar H.Abdurahmonov va N.Mahmudovlarning xizmatlari beqiyosdir. Ular “So‘z estetikasi” asarida ta’kidlaganlaridek: “Badiiy asar tili – bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki estetik ta’sir vositasidir. Ijodkor tilda hali maxsus va aniq ifodasi bo‘lmagan turli ma’no nozikliklarini ifodalash uchun yangi so‘z yasashga majbur bo‘ladi”. [2.31]

Okkazionalizmlarning badiiy-estetik xususiyatlarini monografik darajada o‘rgangan O.To‘xtasinova esa bu birliklarning matn shakllantirishdagi rolini asoslab beradi. Olimaning qayd etishicha, badiiy matndagi okkazionalizm oddiy nominativ birlik emas, balki obrazli tafakkur mahsulidir. Ular o‘quvchida “estetik hayrat” uyg‘otadi va oddiy so‘z bera olmaydigan yangi semantik ottenkalar (nozik ma’nolar) qatlamini yaratadi.[3.42]

Natijalar va muhokama/ Results and discussion/ Результаты и обсуждение

Zukko shoira Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida ham ana shunday okkazional birliklar tizimi o‘ziga xos o‘rin tutadi. Quyida ulardan bir qanchasini tahlil qilamiz:

Yashillanar umr daraxtimiz,
Sarg‘ayar ham bevaqt yog‘sa qor.
Shunday goho toju-taxtlimiz

Goh kechirib bo‘lmas gunohkor. [1.12]

Ushbu she’riy band Halima Xudoyberdiyeva poetik olamidagi individual-uslubiy so‘z yasalishining yorqin namunasidir. Shoira ijodida tabiat hodisalari va inson ruhiyati o‘rtasidagi parallellik ko‘p hollarda maxsus yasalgan, nutqiy vaziyat taqozosi bilan dunyoga kelgan birliklar orqali ifodalanadi. Keltirilgan bandda “yashillanar” so‘zi diqqatni tortadi. O‘zbek tilining lug‘at tarkibida “yashnamoq”, “yashil bo‘lmoq” kabi birliklar mavjud bo‘lsa-da, shoira “yashil” (sifat) asosidan “yashillanmoq” okkazional fe’lini hosil qilgan. Bu yasalma tildagi mavjud “oqarmoq”, “ko‘karmoq” kabi rang-tus fe’llari modeliga qiyosan, lekin yangicha, ohorli shaklda yaratilgan. N.Mahmudov ta’kidlaganidek, bunday yasalmalar “tilda aniq ifodasi bo‘lmagan nozik ma’no qirralari”ni ochishga xizmat qiladi. Shoira “umr daraxti”ning ravnaq topishini shunchaki “yashnaydi” so‘zi bilan emas, balki “yashillanar” birligi orqali berar ekan, undagi jarayonning izchilligini va butun borliqning yashil rangga (hayot ramziga) burkanishini ifodalaydi. Shoira uslubiga xos bo‘lgan navbatdagi lisoniy yangilikni quyidagi misralarda ko‘rishimiz mumkin...

Alvonlanib borar kun chiqar taraf,
Kun chiqar tarafdan yog‘ar ziyolar.
Yog‘dular quyular jimgina titrab
Aylana boshlagach o‘ngga ro‘yolar. [1.56]

Ushbu bandning birinchi misrasida qo‘llanilgan “alvonlanib” so‘zi shoiraning rang tushunchasi orqali harakat va holatni ifodalashdagi o‘ziga xos uslubini ko‘rsatadi. O‘zbek tilining boy lug‘at fondida “alvon” sifati mavjud bo‘lsa-da, undan fe’l yasash jarayoni (alvon+la+n+ib) jonli nutqda kam uchraydi. Shoira bu o‘rinda “alvon” asosiga “-la” (so‘z yasovchi) va “-n” (o‘zlik nisbati) affikslarini qo‘shish orqali yangi okkazional fe’l hosil qiladi. Bu yasalma tildagi “qizarmoq” yoki “toblanmoq” kabi tayyor birliklarning ma’no ko‘lamini chetlab o‘tib, tong otish jarayonidagi ranglarning quyuqlashishini ifodalashga xizmat qiladi. Bu o‘rinda “alvonlanib borar” birikmasi harakatning davomiyligini ko‘rsatadi. Shoira nima uchun oddiygina “qizarib borar” deb aytmadi? Chunki “alvon” so‘zida qizillikning eng yuqori darajasi, tantanavorlik va ma’lum bir hayajon mavjud. “Alvonlanish” – bu shunchaki rang o‘zgarishi emas, balki tabiatning uyg‘onishidagi ulug‘vorlikning lisoniy in’ikosidir.

Umr balki shodumon o‘tar,
Balki… ko‘rgum boshda borini.
Biroq,
Sen qarg‘ama qarg‘ishing tutar,
Ko‘zyoshlaring sababkorini! [1.73]

Shoira ushbu bandda insoniy munosabatlar va taqdirning murakkabligini ifodalash uchun o‘zbek tilining an’anaviy so‘z yasash va ma’no ko‘chishi imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalangan: Tilshunoslik nuqtai nazaridan, shoira bu yerda *-kor* (fors-tojik tillaridan o‘zlashgan mahsuldor qo‘shimcha) affiksi yordamida shaxsni emas, balki ma’naviy-axloqiy mas’uliyatni ifodalovchi so‘z hosil qilgan. Bu o‘rinda “sababkor” shunchaki aybdor emas, balki qarg‘ish va ko‘zyoshning birlashish nuqtasi sifatida tasvirlangan.

Men sog‘indim, uni sog‘indim,
Rangpar Navro‘z kuni sog‘indim.
Hijronzada, alamangiz kun,
Ayriliqning tuni, sog‘indim. [1.168]

Yuqoridagi bandda shoira lirik qahramonning ruhiy holati, ayriliq azobi va ichki kechinmalarini ifodalashda tildagi an’anaviy “hijronli”, “ayriliq” kabi so‘zlar bilan cheklanib qolmaydi. U o‘zbek tilining fors-tojik tilidan o‘zlashgan mahsuldor elementlar asosida “hijronzada” okkazionalizmini kashf etadi. “Hijron” (ayriliq) so‘zi asosiga “-zada” (fors-tojik tilidan o‘zlashgan, “urilgan”, “duchor bo‘lgan”, “shikastlangan” ma’nolarini beruvchi) affiksoidini qo‘shish orqali hosil qilingan. O‘zbek tilida “ofatzada”, “alamzada”, “g‘amzada” kabi tilda barqarorlashgan birliklar mavjud bo‘lsa-da, “hijron” so‘zining ushbu qolipga kirishi shoiraning individual-uslubiy tanlovi natijasidir. Bu o‘rinda shoira tildagi tayyor qolipdan foydalanib, yangi leksik birlik – okkazional sifat yaratgan. “Hijronzada” so‘zi shunchaki ayriliqda qolgan odamni anglatmaydi. Bu birlikda “hijron zarbasidan shikastlangan”, “ayriliq o‘ti bilan kuydirilgan” kabi kuchli ekspressiv bo‘yoq

mavjud. Shoira nima uchun “hijronli” demadi? Chunki “-zada” qo‘shimchasi lirik qahramonning bu holatga shunchaki emas, balki fojiali tarzda duchor bo‘lganini, bu dard uning butun borlig‘iga o‘chmas shikast yetkazganini anglatadi.

Men ketsam, kim?
Qo‘rquv ko‘ksim yoradi.
Ketsam, muzlarda isinib chiqar kim?
Kim kul orasidan qad ko‘taradi,
Xarobazorlarda unib chiqar kim? [1.28]

Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida “xarobazor” so‘zining qo‘llanilishi shoiraning tildagi tayyor morfologik qoliplardan o‘z badiiy niyatini ifodalashda naqadar unumli foydalanishiga yana bir karra misol bo‘ladi. Ushbu birlikni o‘zbek tilshunosligi, xususan, so‘z yasalishi nuqtai nazaridan quyidagicha tahlil qilish mumkin: So‘z “xaroba” (vayrona, buzilgan joy) asosiga “-zor” (fors-tojik tilidan o‘zlashgan, narsa-predmetning mo‘lligi yoki o‘rin-joy ma’nosini ifodalovchi) affiksini qo‘shish orqali hosil qilingan. O‘zbek tilida ushbu qo‘shimcha asosan o‘simliklar dunyosiga oid asoslarga qo‘shilib, “gulzor”, “chamanzor”, “paxtazor” kabi ijobiy yoki neytral bo‘yoqli so‘zlarni yasaydi. Biroq shoira ushbu qolipni mutlaqo zid ma’noli “xaroba” so‘ziga tatbiq etib, individual-uslubiy yasalma (okkazionalizm) hosil qilgan. “Xarobazor” birligi tilda mavjud bo‘lgan “vayrona” so‘ziga qiyosan yaratilgan bo‘lsa-da, shoira matnida u o‘ziga xos ma’no kuchayishi kasb etadi. Agar “xaroba” bitta vayronani anglatsa, “-zor” qo‘shimchasi bu holatning hududiy kengligini, vayronaning cheksiz va qamrovli ekanligini ifodalaydi.

Xulosa/ Conclusion/ Заключение

Okkazionalizmlar yaratishda shoira xalq shevalari va mumtoz adabiyot an’analariga tayanadi, bu esa uning yasalmalarini nafaqat yangi, balki samimiy va milliy ruhga yaqin qiladi.

Halima Xudoyberdiyeva she’riyatida okkazionalizmlar shoira uslubining ajralmas qismi bo‘lib, o‘zbek tilining boy va bitmas-tuganmas poetik imkoniyatlarini ilmiy va badiiy jihatdan isbotlovchi muhim lisoniy dalillar sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Xudoyberdiyeva H. Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor. She’rlar. –Toshkent:SAHHOF nashriyoti, 2022. -352 b.

[2] Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981.

[3] Тўхтасинова О. Й. Ўзбек тили лексик окказионализмлари va ularning badiiy-estetik xususiyatlari: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2007.